

NEMIS TILI O`QITISHDA TIL KOMPONENTLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

O`lmasova Mubinaxon Shamsiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti

Magistratura, lingvistika

Nemis tili yo`nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tili o`qitishda til komponentlarini rivojlantirish metodikasi haqida so`z yuritilgan. Ta`lim oluvchilarga nemis tilini kommunikativ yondashuv asosida o`rgatish prinsiplari haqida to`xtalib o`tilgan. Bu tillarning jihatlari misolida tilni oson o`zlashtirish ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: kommunikativ kompetensiya, kommunikativ-kognitiv prinsip, nemis tili, pedagogik texnologiya, muloqot.

Аннотация. В данной статье рассказывается о методике развития языковых компонентов в обучении немецкому языку. Обсуждены принципы обучения студентов немецкому языку на основе коммуникативного подхода. Эти аспекты языков являются примерами важности легкого освоения языка.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, коммуникативно-когнитивный принцип, немецкий язык, педагогическая технология, общение.

Abstract. This article talks about the methodology of developing language components in German language teaching. The principles of teaching the German language to students based on a communicative approach were discussed. These aspects of languages are examples of the importance of easy language acquisition.

Key words: communicative competence, communicative-cognitive principle, German language, pedagogical technology, communication.

Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim mazmunining sifat kategoriyasini yuqori bosqichga olib chiqish "amalda bo'lajak yuqori malakali mutaxasislarni tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishda barcha oliy ta'lim yo'nalishlari qatorida

filologik oliy ta'lim muxitida talabalarga zamonaviy axborot kommunikasiya, pedogogik texnologiyalar, turli yondashuvlar, metodlarni nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalariga tayangan holda tadbiriq etish dolzarb ahamiyatga ega" [1] ekanligini ko'rsatmoqda.

Yurtimiz mustaqilikka erishgandan so'ng, demokratik -huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida bormoqda. Bu yo'lda qat'iy turish uchun ko'p chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim shartlaridan biri esa kadrlar tayyorlash tizimining mukammal bo'lishi va shaxsning har tomonlama rivojlanishidir. Ta'lim sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishiga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish – talaba faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim.

Yosh avlod ta'lim tarbiyasi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida katta e'tibor qaratib kelingan masalalardan biridir. Kelajak avlod har tomonlama barkamol tarbiyalanishi, har sohada yetuk mutaxassis bo'lishi uchun chet tillarini mukammal o'rgatishimiz, dunyoqarashini kengaytirishimiz lozim. Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchining nutqiy faoliyati kommunikativ kompetensiyani har tomonlama rivojlantirishga asos bo'la oladi.

Ma'lumki, kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Hech kimga sir emaski, mamlakatimiz o'quvchilarining ko'pchiligida chet tillari orasida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchli. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, nemis tilini o'rganayotgan to'rt kishidan uchasi ingliz tilini birinchi xorijiy til sifatida o'rgangan va olingan tajriba, bilim, ko'nikmadan foydalangan holda ikkinchi chet tiliga o'tilishi va uni o'rganishni osonlashtirishi mumkin. Aynan shunday holatlar maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya olgan o'quvchilarning maktab yoshiga yetib, maktabga qabul qilinganlarida yuz beradi. Bunday hollarda ingliz tilini ma'lum darajada o'rganib kelgan o'quvchilarni nemis tili darslariga qiziqtirish uchun ma'lum bir prinsiplarga e'tibor berish lozim. Ingliz tilidan keyin ikkinchi til sifatida nemis tilini o'rganayotganda, har qanday chet tilini o'qitishda qo'llaniladigan umumiy qoidalarga tayanish kerak. Ushbu prinsiplar ko'p o'xshashliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, ular ikkinchi tilga nisbatan qandaydir modifikatsiyaga ega, masalan, o'quv sharoitlarining o'ziga xosligi, uchta tilning o'quv jarayoni bilan aloqada bo'lishi (ona tili, ingliz tili va nemis tili) va hokazolar.

Har qanday chet tilini o'qitishda bo'lgani kabi, kommunikativ maqsadlar ham o'rganishga umumiy uslubiy yondashuvni oldindan belgilab beradi. Ammo o'quvchilar ingliz tilini o'rganishda allaqachon tajribaga ega bo'lganligi sababli, ular ingliz va nemis tillarini o'ziga xos jihatlarni taqqoslashga intilishadi. Shuning uchun ikkinchi chet tilini o'rganishda umumiy uslubiy prinsipni kommunikativ-kognitiv deb ta'riflash mumkin, bu yerda kognitiv tomon kommunikativ tomonga bo'ysunadi va u sizga o'rganishni yengillashtiradigan har qanday o'xshashlikni topish yoki aralashishga yo'l qo'ymaslik uchun farqlarni aniqlash kerak bo'lgan joyda o'zini namoyon qiladi [1]. Umuman olganda, ingliz tilini ma'lum darajada o'zlashtirgan o'quvchilar nemis tilini o'rganishni boshlashganda bu ikki til orasidagi quyidagi o'xshashliklarni sezishadi:

- 1) har ikki til ham lotin harflaridan foydalanadi;
- 2) lug'at va so'zlarning ishlatilish sohasi;

3) oddiy jumlalarning tuzilishidagi o'xshashlik (bog'lovchi fe'lining mavjudligi). Deutsch: Mein Name ist Miller.

English: My name is Miller.

Deutsch: Sie ist krank. English: She is ill.

Deutsch: Er spricht Deutsch. English: He speaks German.

4) Zamon shakllarini o'rganishda (fe'lining uchta asosiy shaklidan va yordamchi fe'ldan foydalanish haben = to have);

Deutsch: Kommen – kam – gekommen

English: come – came – come

Deutsch: Bringen – brachte-gebracht

English: bring – brought – brought

Deutsch: Sprechen – sprach – gesprochen

English: speak – spoke – spoken

Ammo shuni bilish muhimki, har bir yangi chet tilini o'rganish jarayonida, masalan, ingliz tili orqali nemis tilini o'rganish paytida o'quvchilar quyidagi ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin [2]:

- talaffuz qilganda;

- o'qish qoidalarida;

- intonatsiyada;

- ingliz va nemis tillaridagi ba'zi so'zlar bir-biriga o'xshash talaffuz qilinadi, ammo har xil ma'noga ega bo'lib, "tarjimonning yolg'onchi do'stlari" deb ataladi;

-so'z tartibida;

- fe'llarning biriktirilishida; - murakkab grammatik qurilishlarda va boshqalar.

Statistikaga ko'ra, tilni o'qitishda faqatgina 15% muvaffaqiyat o'qituvchiga, 50% o'quvchining qobiliyatlari va harakatlariga bog'liq. Qolgan 35% foizlarga asoslangan motivatsiyaga bog'liq. O'qituvchining kuchi grammatik

paradigmalarining murakkab tizimida yangi tilga bo'lgan qiziqishni tarqatishga imkon bermaydi [3].

Dars jarayonida o'quvchilar chet tilini oson o'zlashtirishi uchun quyidagicha qiziqarli hamda nutqni zamonaviy usulda rivojlantiruvchi mavzulardan foydalanish samara beradi. "Kennenlernen" ("Tanishuv"), "Mein Klasse" ("Mening sinfim"), "Tiere" ("Hayvonlar"), "Meine Familie" ("Mening oilam") kabi mavzular, albatta, o'quvchilarimizning boshlang'ich bilimini hamda nutqini rivojlantirish uchun ko'mak beradi. Bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda dialog, fikr almashishning tinglash, o'qish va yozish asosiy tajribalardandir. Masalan, yuqorida qayd etilgan "Mein Klasse" mavzusi asosida dars mashg'uloti o'tkazilayotgan jarayonda er/sie, ihr – shaxsiy olmoshlaridan, mein, dein – egalik olmoshlaridan, raqamlar, o'quv qurollar, fanlarning nomlaridan foydalanish qo'l keladi. Dialog – so'rov o'tkazish paytida esa fanlarning qaysi mavzulari sizga yoqadi, qaysi biri yoqmaydi; o'g'il bolalar qiz bola do'stingiz haqida gapiring; aloqa jarayonida esa faol lug'at bilan ishlash; o'rganilayotgan lingvistik materiallar asosida qurilgan audio yozuvlarda kichik hajmdagi kirish matnlarini tinglash; og'zaki ravishda eshitgan narsalarga munosabat bildirish yordam beradi

Xulosa qilib aytish mumkinki, nemis tilini o'rganishni osonlashtirish uchun o'quvchilar e'tiborini ingliz va nemis tillardagi mosliklar va farqlarni topishga yo'naltirish kerak. Xorijiy tillarni o'qitish kompetensiyasi o'quvchining xorijiy til bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotda, aniq bir sohada amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini shakllantiradi.

Chet tili darslarida autentik videolarning motivasion salohiyati ham muhimdir. Ushbu uslubiy vosita kundalik hayotdagi kommunikativ vaziyatlar bilan ifodalangan jonli til muhitida mavjud vaziyatlarni o'rganishga imkon beradi, bu esa o'quvchilarni o'rganilayotgan tildan Real sharoitlarda foydalanishga tayyorlaydi. Videolarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga asoslangan muammoli vaziyatlarni sharhlash va muhokama qilish, qo'shimcha ma'lumotlarni topish va ularni guruh

bilan baham ko'rish natijasida, talabalarda dunyoqarash, axloqiy va estetik tarbiya shakllanadi, shuningdek lingvistik ma'lumotlarni (verbal va noverbal aloqa vositalari), ijtimoiy madaniy vaziyatlarda qo'llashga rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Shamuratova G. Chet tilini o'qitishda madaniyatlararo yondashuv //til va adabiyot ta'limi jurnali. 2021 (2) 40-41 betlar
- 2 Ellis, R. (2003). Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford: Oxford University Press.
- 3 Nunan, David (2004). Task-based Language Teaching. New York: Cambridge University Press. pp. 1–16. ISBN 978-0-521-84017-0.
- 4 Willis, J. (1996). A framework for task-based learning. Harlow: Longman.
- 5 Riskulova, K.D (2017) DSc dissertation “System of formation of sociolinguistic competence of future English language teachers// T.
- 6 Leaver B.L., Ehrman M., Shekhtman B. Achieving success in second language acquisition // Cambridge University Press, 2005.p.265
- 7 Byram, M.; Gribkova, B.; Starkeym, H. Developing the Intercultural Dimension in Language Teaching: A Practical Introduction for Teachers; Council of Europe: Strasbourg, UK, 2002.
- 8 Richards, Jack C and Theodore Rodgers . 2001. Approaches and Methods in Language Teaching (3rd edition). New York: Cambridge University Press.
- 9 Ritchie, M. (2011). Developing sociolinguistic competence through intercultural online exchange. In S. Thouësnny & L. Bradley (Eds.), Second language teaching and learning with technology: views of emergent researchers (pp. 123-141). Dublin: Research-publishing.net.
- 10 Панфилова А.П. Инновационные педагогические технологии: Активное обучение: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Издательский центр «Академия», 2009. 192 с.